

JAZONI IJRO ETISH MUASSALARIDA INSON HUQUQLARINI TA'MINLASH MASALALARI

Axmatov Samandar Olim o'g'li

*O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi
Islom iqtisodiyoti va xalaqro munosabatlar fakulteti
Yurisprudensiya yo'nalishi 4-bosqich talabasi*

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada jazoni ijro etish muassasalarida inson huquqlarining ta'minlanishi masalalari chuqur tahlil qilinadi. Tadqiqot jarayonida BMTning Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, Mandela qoidalari, Qiynoqlarga qarshi konvensiya kabi xalqaro standartlar hamda O'zbekiston Konstitutsiyasi va Jinoyat-ijroiya kodeksi normalarining amaliyotga tatbiqi ko'rib chiqiladi. Shuningdek, Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha vakili (Ombudsman)ning jazoni ijro etish muassasalarini muntazam monitoring qilish orqali mahkumlar huquqlarini himoya etishdagi o'rni alohida o'rganiladi. Maqolada mahkumlarning ta'lim, sog'liqni saqlash, mehnat, aloqa, shikoyat qilish va qadr-qimmatini himoya qilib turuvchi boshqa asosiy huquqlarining ta'minlanishi tizimning demokratik rivojlanish darajasini belgilashi ilmiy asosda yoritilgan. Tadqiqot natijalari jazoni ijro etish tizimida ochiqlik, fuqarolik jamiyati ishtiroki, shaffof nazorat va insonparvar yondashuv asosiy ustuvor yo'nalish bo'lishi zarurligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: Inson huquqlari, ombudsman, Mandela qoidalari, jazoni ijro etish muassasalari, mahbuslar, mahkumlar, adolatli sudlov, shafqatsiz va g'ayriinsoniy muomala, sog'liqni saqlash, erkinlik, javobgarlik, qiynoq.

АННОТАЦИЯ: В данной статье представлен всесторонний анализ обеспечения прав человека в учреждениях исполнения наказаний. Рассматриваются вопросы практического применения международных стандартов - Всеобщей декларации прав человека, Правил Нельсона Манделы, Конвенции против пыток - а также норм Конституции Республики Узбекистан и Уголовно-исполнительного кодекса. Особое внимание уделено деятельности Уполномоченного Олий Мажлиса по правам человека (омбудсмена), который посредством регулярного мониторинга играет ключевую роль в защите прав лиц, лишённых свободы. В статье подчёркивается, что гарантии права на образование, медицинскую помощь, труд, связи с внешним миром, подачу жалоб и защиту человеческого достоинства являются важными критериями демократичности пенитенциарной системы. Результаты исследования свидетельствуют о необходимости дальнейшего укрепления прозрачности, участия

гражданского общества, эффективного контроля и гуманного обращения в процессе реформирования системы исполнения наказаний.

Ключевые слова: Права человека, омбудсмен, Правила Манделы, учреждения исполнения наказаний, заключённые, осуждённые, справедливое судебное разбирательство, жестокое и бесчеловечное обращение, здравоохранение, свобода, ответственность, пытки.

ABSTRACT: This article provides an in-depth analysis of the protection of human rights in penitentiary institutions. It examines the practical implementation of international standards - such as the Universal Declaration of Human Rights, the Mandela Rules, and the Convention against Torture - alongside the norms of the Constitution of the Republic of Uzbekistan and the Criminal-Executive Code. Special attention is given to the role of the Ombudsperson of the Oliy Majlis, whose regular monitoring activities significantly contribute to safeguarding the rights of prisoners. The article highlights that ensuring access to education, healthcare, labor, communication, complaint mechanisms, and the protection of human dignity serves as a key indicator of democratic maturity within the penitentiary system. The research findings emphasize the importance of transparency, civil society participation, effective oversight, and humane treatment as essential principles for advancing reforms in the execution of punishment.

Keywords: Human rights, ombudsperson, Mandela Rules, penitentiary institutions, detainees, convicted persons, fair trial, cruel and inhuman treatment, healthcare, liberty, accountability, torture.

Bugungi kunga kelib “inson huquqlari” degan soʻz deyarli har bir davlatning qonunlarida, har bir xalqaro tashkilotning rezolyutsiyalarida va deyarli har bir odamning soʻzida uchraydi. Ammo koʻp hollarda bu atama rasmiy, sovuq va siyosiy bir tushunchadek eshitiladi. Inson huquqlari haqida gap ketganda, koʻpchilik uni oʻzlarining yashash huquqi, soʻz erkinligi, saylov huquqi yoki taʼlim olishi bilan bogʻlaydi. Ammo inson huquqlari faqat ozodlikda yashayotgan insonlarga emas, balki ozodlikdan mahrum qilingan shaxslarga ham tegishlidir, ular ham inson, demak, ular ham insoniy shaʼn va huquqlarga ega. Jazoni ijro etish muassasalari - jamiyatdagi eng yopiq, ammo inson huquqlari eng sinovdan oʻtadigan joylardir. Chunki aynan shu joylarda, inson baʼzi erkinliklaridan mahrum boʻlgan taqdirda ham oʻz qadr-qimmatini saqlab qolish huquqiga ega boʻlishi kerak.

Jazoni ijro etish muassasalarida inson huquqlarini himoya qilish adolatli va insonparvar jinoiy sudlov tizimini shakllantiruvchi fundamental omil boʻlib, u xalqaro va milliy standartlar bilan mustahkamlangan. Ozodlikdan mahrum qilingan shaxslarga nisbatan munosabatda boʻlishda Birlashgan Millatlar Tashkilotining “Inson huquqlari umumjahon

deklaratsiyasi”, “Birlashgan Millatlar Tashkilotining mahbuslar bilan muomala qilish bo‘yicha minimal standart qoidalari (Mandela qoidalari)” va “Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risida”gi xalqaro pakt kabi dunyo mamlakatlari tan olgan xalqaro hujjatlarning va milliy qonunchilikning tamoyillariga amal qilish lozim. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 5-moddasida “Hech kim qiynoqqa yoki shafqatsiz, g‘ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni xo‘rlovchi muomala va jazoga duchor etilmasligi kerak”¹²⁶, Mandela qoidalarining 1-qoidasida “Barcha mahbuslarga, ularning qadr-qimmatiga va inson sifatidagi qadriyatlariga qarab hurmat bilan munosabatda bo‘lish zarur. Hech bir mahbus qiynoqqa solinishi va muomala yoki jazolashning boshqa shafqatsiz, g‘ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsitadigan turlariga duchor qilinmasligi kerak”¹²⁷ va Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro paktning 10-moddasida “Ozodlikdan mahrum etilgan barcha shaxslar insonlarcha muomala qilinish va inson shaxsiga xos bo‘lgan qadr-qimmatini hurmat qilinishi huquqiga ega”¹²⁸ ekanligi ta’kidlangan. Bu qoidalar nazariy tamoyillar emas, balki jazoning asosiy maqsadi - shaxsni qiynoqqa solish yoki kamsitish emas, balki uni tarbiyalash, huquqiy ongini yuksaltirish va jamiyatga qayta integratsiya qilishdan iborat ekanligini ifodalaydi. Shuningdek, jazoni ijro etish muassasalaridagi mahkumlarning huquqlari O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va Jinoyat-ijroiya kodeksida ham ko‘rsatib o‘tilgan.

Konstitutsiyamizning 26-moddasida “Hech kim qiynoqqa solinishi, zo‘ravonlikka, boshqa shafqatsiz, g‘ayriinsoniy yoki inson qadr-qimmatini kamsituvchi muomalaga yoxud jazoga duchor etilishi mumkin emas”¹²⁹ligi belgilab qo‘yilgan.

Konstitutsiyaning 29-moddasida “Jinoyat uchun hukm qilingan har kim qonunda belgilangan tartibda hukmning yuqori turuvchi sud tomonidan qayta ko‘rib chiqilishi huquqiga, shuningdek afv etish yoki jazoni yengillashtirish to‘g‘risida iltimos qilish huquqiga ega”¹³⁰ ekanligi kafolatlangan.

Konstitutsiyaning 33-moddasiga ko‘ra¹³¹, har kim fikrlash, so‘z va e‘tiqod erkinligi huquqiga ega.

¹²⁶ Инсон ҳуқуқлари бўйича халқаро шартномалар: тўплам. Ўзбекча нашрининг масъул муҳаррири А. Х. Саидов. — Тошкент: “Адолат”, 2004. — 520 бет. Б 32.

¹²⁷ Birlashgan Millatlar Tashkilotining Mahbuslar bilan muomala qilish bo‘yicha minimal standart qoidalari (mandela qoidalari). <https://lex.uz/docs/-7352133> (10.11.2025)

¹²⁸ Инсон ҳуқуқлари бўйича халқаро шартномалар: тўплам. Ўзбекча нашрининг масъул муҳаррири А. Х. Саидов. — Тошкент: “Адолат”, 2004. — 520 бет. Б 40.

¹²⁹ **O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.** [Matn] Rasmiy nashr. — Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2023. — 120 b. B 17.

¹³⁰ **O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.** [Matn] Rasmiy nashr. — Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2023. — 120 b. B 20.

¹³¹ **O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.** [Matn] Rasmiy nashr. — Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2023. — 120 b. B 23.

34-moddada esa, "Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har kim xohlagan dinga e'tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e'tiqod qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlarni majburan singdirishga yo'l qo'yilmaydi"¹³² deb belgilab qo'yilgan.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-ijroiya kodeksining 9-moddasida mahkumlarning huquqlari ko'rsatib o'tilgan bo'lib, bunga ko'ra ular quyidagi huquqlarga ega:

- jazoni o'tash tartibi va shartlari to'g'risida, o'z huquqlari va majburiyatlari haqida axborot olish;
- jazoni ijro etuvchi muassasa yoki organ ma'muriyatiga, boshqa davlat organlari va jamoat birlashmalariga o'z ona tilida yoki boshqa tilda taklif, ariza va shikoyatlar bilan murojaat etish;
- o'z taklif, ariza va shikoyatlariga murojaat etilgan tilda javob olish. Murojaat etilgan tilda javob berishning iloji bo'lmagan taqdirda javob O'zbekiston Respublikasining davlat tilida beriladi. Javobni intizomiy qismga jo'natish va ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan shaxs murojaat etgan tilga tarjima qilib berish jazoni ijro etuvchi muassasa yoki organ tomonidan ta'minlanadi;
- O'zbekiston Respublikasining qonunchiligiga va xalqaro shartnomalariga muvofiq, agar davlatning huquqiy himoyaga doir barcha ichki vositalaridan foydalanib bo'lingan bo'lsa, insonning huquq va erkinliklarini himoya qiluvchi xalqaro organlarga murojaat etish;
- tushuntirish berish hamda yozishmalar olib borish, zarur hollarda tarjimonning shu jumladan surdotarjimonning xizmatidan foydalanish;
- o'quv, badiiy va boshqa xil axborot materiallaridan foydalanish;
- sog'lig'ini saqlash, shu jumladan tibbiy xulosaga ko'ra ambulatoriya-poliklinika va statsionar sharoitda tibbiy yordam olish;
- ob-havo sharoiti yo'l qo'ysa, ishdan bo'sh vaqtida toza havoda jismoniy mashqlar bilan shug'ullanish;
- jazoni ijro etish muassasasining psixologik xizmat ko'rsatish xodimlari tomonidan ko'rsatiladigan psixologik yordamni olish. Ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan shaxslarning psixologik yordam ko'rsatish bilan bog'liq tadbirlarda ishtirok etishi faqat ularning roziligi bilan amalga oshiriladi;
- mehnat to'g'risidagi qonunchilikka muvofiq xavfsiz mehnat sharoitiga ega bo'lish, dam olish, ta'tilga chiqish, shuningdek mehnatiga haq to'lanishi;
- ijtimoiy ta'minot, shu jumladan qonunchilikka muvofiq pensiya olish.¹³³

¹³² O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. [Matn] Rasmiy nashr. – Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2023. – 120 b. B 23.

Demak, har bir qamoqxona - bu nafaqat jazoni ijro etish joyi, balki insonni qayta ijtimoiylashtirish maktabi hamdir. Mandela qoidalarining 4-qoidasida ozodlikdan mahrum qilish tarzidagi jazo birinchi navbatda, jamiyatni jinoyatchilardan himoya qilish va jinoyatlarning takrorlanish holatini kamaytirish maqsadida qo'llanilishi va bu maqsadlarga faqat, agar qamoqda saqlash muddatidan imkon qadar bunday shaxslar ozodlikka chiqqanidan so'ng ularning qonunga bo'ysunadigan va mustaqil hayot kechirishlari uchun ularni jamiyatga qayta integratsiyalashuvini ta'minlash maqsadida foydalanilsa, erishish mumkinligi ta'kidlangan.¹³⁴ Biroq, ko'pgina jazoni ijro etish muassasalaridagi voqelik ko'pincha ushbu standartlarga to'g'ri kelmaydi, mahkumlar o'zlarining asosiy huquqlarini amalga oshirishga to'sqinlik qiluvchi ko'plab muammolar va to'siqlarga duch kelishadi.

Tasavvur qiling, bir mahkum o'z aybini tan olib, hayotini o'zgartirishni istaydi. U o'qishni davom ettirmoqchi, kasb o'rganmoqchi yoki oilasi bilan muloqotda bo'lib to'g'ri hayot yo'lini tanlashni xohlaydi yohud tibbiy xizmatga ehtiyoji bor. Agar u yashayotgan muassasada bu imkoniyatlar yo'q bo'lsa - bu shaxs nafaqat ozodlikdan, balki insoniylik degan oliy ne'matdan ham mahrum qilingan hisoblanadi. O'z navbatida, mahkumlar uchun mehnat, ta'lim olish, tibbiy yordamdan foydalanish va aloqa huquqlarini ta'minlash - ularning jamiyatga qaytish jarayonidagi eng muhim shartlardir. Bu huquqlarning ta'minlashi uchun Mandela qoidalarining 4-qoidasi 2-qismi asos bo'ladi, unga ko'ra, "Jazoni ijro etish muassasasi ma'muriyati va vakolatli organlar mahbuslarga ta'lim olish, kasbga tayyorlash va ishlash uchun tegishli va mavjud imkoniyatlarni, shuningdek yordam ko'rsatishning boshqa turlari, jumladan axloq tuzatish, axloqiy, ma'naviy, ijtimoiy, tibbiy va sportga oid yordamni taqdim etishi zarur"¹³⁵.

Shu sababli ham O'zbekistonda so'nggi yillarda jazoni ijro etish tizimida sezilarli islohotlar amalga oshirildi.

Jumladan, Markaziy Osiyo mamalakatlari orasida birinchi bo'lib O'zbekistonda Inson huquqlari bo'yicha vakil (Ombudsman) lavozimi tashkil etilgan. Ombudsman - bu nafaqat ozodlikdagi fuqarolarning, balki ozodlikdan mahrum etilgan shaxslarning ham vakilidir. Qonunchilik palatasi tomonidan 2024-yil 17-sentabrda yangi tahrirda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo'yicha vakili (Ombudsman)

¹³³ O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING JINOYAT-IJROIYA KODEKSI. <https://lex.uz/acts/-163629> (10.11.2025)

¹³⁴ Birlashgan Millatlar Tashkilotining Mahbuslar bilan muomala qilish bo'yicha minimal standart qoidalari (Mandela qoidalari). <https://lex.uz/docs/-7352133> (10.11.2025)

¹³⁵ Birlashgan Millatlar Tashkilotining Mahbuslar bilan muomala qilish bo'yicha minimal standart qoidalari (Mandela qoidalari). <https://lex.uz/docs/-7352133> (10.11.2025)

to‘g‘risida”¹³⁶ gi qonunga muvofiq, endilikda Ombudsman O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi ko‘rib chiqishi uchun qonunga muvofiq masalalar kiritish; fuqarolar manfaatlarini ko‘zlab arizalar hamda da‘volar bilan sudlarga murojaat etish; inson huquqlari va erkinliklari sohasidagi qonun hujjatlarining aniqlangan buzilishlarini, ularga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish to‘g‘risida davlat organlari va boshqa tashkilotlar rahbarlariga belgilangan muddatlarda ko‘rib chiqilishi majburiy bo‘lgan taqdimnomalar kiritish kabi huquqlarga ega bo‘ldi. Shuningdek, Ombudsmanning ozodlikdan mahrum qilingan shaxslarning huquqlarini himoya qilish, ulardan kelib tushayotgan murojaatlarni atroflicha o‘rganib samarali yordam berish va jazoni ijro etish muassasalarini monitoring qilib borish faoliyati ham kengaytirildi.

O‘zbekiston Prezidenti tashabbusi bilan 2017-yildan boshlab jazoni ijro etish tizimi tubdan o‘zgardi. Jazoni ijro etish muassasalarida nazorat tizimi kuchaytirildi - Oliy Majlisning Inson huquqlari bo‘yicha vakili (Ombudsman), Bosh prokuratura va Inson huquqlari bo‘yicha Milliy markazi muntazam ravishda jazoni ijro etish muassasalarini monitoring qila boshladi.¹³⁷

2017-yilning 9 oyi davomida Ombudsman nomiga jismoniy va yuridik shaxslardan jami 6 ming 329 ta murojaat tushgan bo‘lib, shundan 1 ming 789 tasi nazorat tartibida o‘rganib chiqildi. Ular yuzasidan davlat organlariga 2 ming 468 ta so‘rov yuborilgan. Kelib tushayotgan murojaatlarning 41,6 foizi - shaxsiy, 28,6 foizi - ijtimoiy, 25,8 foizi - iqtisodiy, 3,5 foizi - siyosiy huquqlarga, qolgani esa boshqa huquqlarga tegishli ekanligi aniqlangan.¹³⁸

Birgina 2020-yilda pandemiya sharoitida Ombudsman boshchiligidagi 42 marotaba jazoni ijro etish muassasalari, 9 marotaba vaqtincha saqlash hibsonalari, 8 marotaba ichki ishlar organlari, 6 marotaba tergov hibsonalari, 5 marotaba ma‘muriy qamoqqa olinganlarni saqlash uchun mo‘ljallangan maxsus joylarga monitoring tashriflari uyshtirilgan. Bu

¹³⁶ “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo‘yicha vakili (Ombudsman) to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 15.11.2024 yildagi O‘RQ-1002-son

¹³⁷ Oliy Majlisning Inson huquqlari bo‘yicha vakili (Ombudsman). *Monitoring faoliyati haqida hisobotlar*. — Ombudsman rasmiy saytida e‘lon qilingan monitoring ma‘lumotlari (2017–2024). URL: <https://ombudsman.uz/oz/tag/monitoring>

Shuningdek: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5308-son Farmoni, 22.01.2018 y. “Jazoni ijro etish muassasalarining faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”. URL: <https://lex.uz/docs/3516847>

¹³⁸ Quyida keltirilgan ma‘lumotlar “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo‘yicha vakilining (Ombudsmanning) 2017 yildagi faoliyati to‘g‘risida”gi hisobotidan olingan. <https://ombudsman.uz/oz/docs/ozbekiston-respublikasi-olij-majlisining-inson-huquqlari-bojicha-vakili-ombudsmanning-2017-jildagi-faoliyati-togrisida-gi-hisoboti>

jarayonlar davomida jazoni ijro etish muassasalarida saqlanayotgan 4 000 nafardan ortiq shaxslar bilan jamoaviy, 578 nafar shaxslar bilan individual uchrashuvlar o'tkazilgan.¹³⁹

2024-yilda Ombudsmanga ozodlikdan mahrum qilingan shaxslar, ulaming yaqin qarindoshlari va himoyachilaridan (advokatlaridan) 2747 ta (2023-yilda 2662 ta) murojaat kelib tushgan. Murojaatlarning 527 tasida (2023-yilda 403 ta) sud hukmidan hamda 454 tasida (403 ta) surishtiruv va tergov harakatlaridan shikoyat qilingan, 397 tasida (2023-yilda 407 ta) jazoning yengillashtirilishi, muddatidan oldin ozod etilishi va (yoki) afv etilishi so'ralgan.

Shuningdek, murojaatlarning 191 tasida (186 ta) ruhiy, psixologik, jismoniy yoki boshqacha tarzda bosim o'tkazilganligi, 88 tasida (135 ta) yashash joyiga yaqin bo'lgan muassasaga o'tkazilishi, 75 tasida (117 ta) sud majlisida Ombudsman Kotibiyati xodimining ishtirok etishi, 74 tasida (215 ta) oila a'zolariga moddiy va ijtimoiy yordam berilishi, 70 tasida (347 ta) Ombudsman yoki uning xodimlari bilan uchrashishi, 51 tasida (135 ta) tibbiy yordam ko'rsatilishi va 820 tasida (292 ta) boshqa masalalar (oilaviy munosabatlar, ekstraditsiya, yashash joyi bo'yicha ro'yxatga qo'yish, fuqarolik pasportini rasmiylashtirish, nikohni qayd etish va shu kabilar) bayon etilgan.¹⁴⁰

O'zbekistonda olib borilayotgan demokratik islohotlarni statistik ma'lumotlar bilan izohlash va mamlakatimizning xalqaro reytinglardagi o'rnining aniq ifoda etilishini ta'minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22-maydagi tegishli qaroriga muvofiq maxfiy hisoblangan ayrim ma'lumotlar ochiq ma'lumotlar ro'yxatiga kiritildi. Qator islohotlar natijasida ijtimoiy xavfi hamda uncha og'ir bo'lmagan jinoyatlarni sodir etib, jazo muddatini o'tayotgan shaxslarga ilk marotaba saylash huquqi berildi. Umumiy, qattiq, maxsus, turma tartibli va tarbiya muassasalarida saqlanayotgan shaxslarning yaqin qarindoshlari bilan telefon so'zlashuvlari, uchrashuvlari hamda jo'natma qabul qilishlari soni qariyb ikki barobar ko'paytirildi.

Endi "Nega jazoni ijro etish muassasalarida inson huquqlari ta'minlanishi kerak?" degan savolga javob bersak. Inson huquqlarining asosiy tamoyili - inson sha'ni va qadr-qimmatini tug'ma va daxlsiz ekanligidir. Jazoni ijro etish muassasasiga tushgan odam ozodligidan mahrum etiladi, lekin insoniyligidan emas. "Jazoni ijro etish muassasasi rejimi qamoqxonadagi va ozodlikdagi hayot o'rtasidagi farqni imkon qadar kamaytirishga intilishi

¹³⁹ Quyida keltirilgan ma'lumotlar "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo'yicha vakilining (Ombudsmanning) **2020 yildagi faoliyati to'g'risida**"gi hisobotidan olingan. <https://ombudsman.uz/oz/docs/ozbekiston-respublikasi-oliy-majlisining-inson-huquqlari-boyicha-va-kili-ombudsmanning-2020-yildagi-faoliyati-togrisidagi-hisoboti>

¹⁴⁰ Quyida keltirilgan ma'lumotlar "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo'yicha vakilining (Ombudsmanning) **2024 yildagi faoliyati to'g'risida**"gi hisobotidan olingan. <https://ombudsman.uz/oz/docs/ozbekiston-respublikasi-oliy-majlisining-inson-huquqlari-boyicha-va-kilining-ombudsmanning-2024-yildagi-faoliyati-togrisidagi-m-a-r-u-z-a>

kerak. Bu mahbuslarning mas'uliyat tuyg'usini kamaytiradi yoki inson sifatida ularning xislatlarini hurmat qiladi".¹⁴¹ Mahbus qanchalik og'ir jinoyat sodir etgan bo'lishidan qat'iy nazar, qiynoqlardan, zo'ravonlikdan, ochlikdan, kamsitishdan himoyalaniishi shart.

Ozodlikdan mahrum qilinganlar davlat nazoratida ekanligi, shu davlatda inson huquqlari qanchalik ta'minlanganligini belgilab beruvchi omillardan biri hisoblanadi. Chunki jazoni ijro etish muassasalarining sharoitlari davlatning demokratiklik mezonidir. Bir davlatning huquqiy madaniyati shu davlat jazoni ijro etish muassasalari qanchalik insoniyligiga qarab baholanadi. Demokratik davlatlarning jazoni ijro etish muassasalarida:

- tibbiy xizmat,
- psixologik yordam,
- toza suv va gigiyena,
- advokatga kirish imkoniyati kafolatlanadi. Bu jamiyatning huquqiy tizimi yetukligini ko'rsatadi.

BMTning Umumjahon inson huquqlari deklaratsiyasi, Nelson Mandela qoidalari, Qiynoqlarga hamda muomala va jazolashning boshqa shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsitadigan turlariga qarshi konvensiya¹⁴², Fuqaroviy va siyosiy huquqlar to'g'risidagi pakti va shu kabi bir qator xalqaro hujjatlar hammada minimal insoniy sharoit bo'lishi kerakligini va bu huquqlarni himoya qilish davlatning xalqaro majburiyati ekanligini belgilaydi.

Jahon hamjamiyati bilan keng ko'lamli hamkorlikni yo'lga qo'yayotgan hamda demokratik taraqqiyot yo'lida izchil va qat'iy qadamlar tashlayotgan Yangi O'zbekistonning bosh maqsadi - avvalo, xalq manfaatlariga xizmat qiladigan islohotlarni amalga oshirishdan iboratdir. So'nggi yillarda olib borilayotgan siyosiy, huquqiy va ijtimoiy islohotlarning markazida insonning huquq va erkinliklarini ta'minlash, uning sha'ni va qadr-qimmatini yuksak qadrlash tamoyillari turadi.

Mazkur yondashuv O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ham o'z ifodasini topgan. Jumladan, Bosh Qomusimizda ta'kidlanganidek, "O'zbekiston Respublikasida demokratiya umuminsoniy prinsiplarga asoslanadi, ularga ko'ra inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmatini va boshqa ajralmas huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi".¹⁴³ Bu norma davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari bevosita inson manfaatlarini bilan bog'langanligini, barcha islohotlar markazida fuqarolarning farovonligi turishini yana bir bor tasdiqlaydi.

¹⁴¹ Birlashgan Millatlar Tashkilotining Mahbuslar bilan muomala qilish bo'yicha minimal standart qoidalari (mandek qoidalari). <https://lex.uz/docs/-7352133> (10.11.2025)

¹⁴² Инсон ҳуқуқлари бўйича халқаро шартномалар: тўплам. Ўзбекча нашрининг масъул муҳаррири А. Х. Саидов. — Тошкент: "Адолат", 2004. — 520 бет. Б 69.

¹⁴³ **O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.** [Matn] Rasmiy nashr. — Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2023. — 120 b. B 8.

Jazoni ijro etish muassasalarida inson huquqlarini ta'minlash adolatli jinoiy sudlov tizimining muhim jihati hisoblanadi. Barcha shaxslar, shu jumladan jazoni ijro etish muassasalaridagilar uchun asosiy inson huquqlarini himoya qilish va tizimli muammolarni hal qilish uchun mazmunli islohotlarni amalga oshirish muhimligini tan olgan holda, biz sharoitlaridan qat'i nazar, barcha shaxslarning qadr-qimmatini va huquqlarini hurmat qiladigan tizim yaratishga harakat qilishimiz kerak. Biz jazoni ijro etish muassasalarida inson huquqlari himoyasini targ'ib qilishda davom etishimiz va adolatli, mehr-oqibatli va inson huquqlari xalqaro standartlariga mos tarzda ta'minlanishiga intilishimiz muhim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi
2. Birlashgan Millatlar Tashkilotining mahbuslar bilan muomala qilish bo'yicha minimal standart qoidalari (Mandela qoidalari)
3. Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi pakt
4. Qiynoqlarga hamda muomala va jazolashning boshqa shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsitadigan turlariga qarshi konvensiya
5. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi
6. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi
7. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-ijroiya kodeksi
8. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman) to'g'risidagi qonun
9. Инсон ҳуқуқлари бўйича халқаро шартномалар: тўплам. Ўзбекча нашрининг масъул муҳаррири А. Х. Саидов. — Тошкент: “Адолат”, 2004.
10. Ravshanov, U. M., & Abayev, A. S. (2021). O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida inson huquqlarining ta'minlanishi.
11. www.president.uz
12. www.ombudsman.uz
13. www.lex.uz